

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC. 03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**AMIRDJANOVA SITORA SUNNAT QIZI**

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISH SHAROITIDA AHOLI  
BANDLIGINI TA’MINLASHNING MAKROIQTISODIY JIHALARI**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiysi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation the abstract Doctor of Philosophy (PhD)  
in economics sciences**

**Amirdjonova Sitora Sunnat qizi**

Barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida aholi bandligini ta'minlashning  
makroiqtisodiy jihatlari..... 5

**Амирджанова Ситора Суннат қизи**

Макроэкономические аспекты обеспечения занятости населения в  
условиях устойчивого экономического роста..... 29

**Amirjanova Sitora Sunnat kizi**

Macroeconomic Aspects of Ensuring Employment of the Population in the  
Conditions of Sustainable Economic Growth..... 55

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 59

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC. 03/30.01.2021.1.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**AMIRDJANOVA SITORA SUNNAT QIZI**

**BARQAROR IQTISODIY O‘SISH SHAROITIDA AHOLI  
BANDLIGINI TA’MINLASHNING MAKROIQTISODIY JIHLTLARI**

**08.00.02 – Makroiqtisodiyot**

**Iqtisodiyot bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiysi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent shahri – 2023-yil**

**Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD / Iqt2088 raqami bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasi ([www.tdiu.uz](http://www.tdiu.uz)) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz))ga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:** **Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna**  
iqtisod fanlari doktori, professor

**Gabzalilova Vinera Tursunovna**  
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Toshkent moliya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03.30.01.2021.I.16.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy. Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy, Tel: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 233-60-01; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “\_\_\_” \_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2023-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisod fanlari doktori, professor

**B.D. Xajiyev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

**U.V. G‘ofurov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, iqtisod fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayoni va raqamlashtirish tendensiyalarining tobora chuqurlashib borishi hamda nostandart iqtisodiy shart-sharoitlarga ko‘ra bandlikni ta‘minlash va yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. “Jahonda ish soatlari davomiyligi 2021-yilda 2019-yilga nisbatan 4,3 foizga qisqarib, bu o‘z o‘rnida doimiy band ish o‘rinlariga nisbatan 125 mln. ish o‘rnining qisqarishiga tengdir”<sup>1</sup>. Bugungi kunda jahonda aholi bandligini munosib ta‘minlashda mehnat bozorining tiklanishini jadal amalga oshirish, mavjud ish o‘rinlarini saqlagan holda innovatsion taraqqiyotga muvofiq holda yangi ish o‘rinlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahon iqtisodiyotidagi o‘zgarishlar, jumladan, sun‘iy intellektning iqtisodiyot tarmoqlariga jadal ravishda kirib borishi va bandlikdagi muammolar yechimiga ko‘ra ish o‘rinlarni intellektuallashtirish, munosib ish o‘rinlarini yaratish va turmush sifatini oshirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, jumladan, ish o‘rinlarini intellektuallashtirishga muvofiq holda malakali kadrlar tayyorlash, yoshlar va xotin-qizlar bandligini samarali ta‘minlash, mehnat bozorida talab va taklif mutanosibligini prognozlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, ishchi kuchi mobilligini samarali tashkil qilish, professional ta‘lim tizimini iqtisodiyotdagi sifat o‘zgarishlariga ko‘ra moslashtirib borish mexanizmlarini ishlab chiqish yo‘nalishidagi ilmiy izlanishlarga alohida ahamiyat berilmoqda.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tarkibida aholining munosib bandligini ta‘minlash, raqamlashtirish sharoitida yangi ish o‘rinlarini malakali tashkil qilish, aholi turmush darajasini oshirish va samarali bandlikning tashkiliy-iqtisodiy resurslaridan maqsadli foydalanish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. “Mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilari hamda yoshlar yetakchilari tomonidan doimiy ravishda mahallani o‘rganish va tahlil qilish natijasiga ko‘ra ularni rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni ishlab chiqish amaliyotini yo‘lga qo‘yish”<sup>2</sup> bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirishda mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va aholi bandlik muammolarining uslubiy asoslarini takomillashtirish, iqtisodiy o‘sish sharoitida norasmiy bandlikni optimallashtirish, bandlikni ta‘minlashning samarali shakllarini joriy etish yo‘nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarni yanada chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot

<sup>1</sup> The Sustainable Development Goals Report-2022. – 43 p.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son farmoni. www.lex.uz

strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 8-iyundagi PQ–4742-son “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 3-dekabrda PQ–31-son “Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 30-avgustda PQ–366-son “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-sentyabrda PQ–376-son “Xotin-qizlar bandligini oshirish va salomatligini mustahkamlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o‘rganilganlik darajasi.** Yirik xorijiy va mahalliy mualliflarning tadqiqotlari bandlikni ta’minlashning nazariy, uslubiy va amaliy muammolariga bag‘ishlangan. Turli iqtisodiy maktab va yo‘nalishlar vakillari mehnat bozori nazariyasining rivojlanishiga munosib hissa qo‘shganlar. A.Smit, D.Rikkardo, J.Say, A.Marshall, A.Pigu, V.Pareto, R.Gordon, D.Xiks, X. Lampert, P.Samuelson bandlik va ishsizlikning nazariy konsepsiyalarini shakllantirib, makroiqtisodiy darajada mehnat bozori nazariyasini sezilarli darajada to‘ldirganlar.

Xorijiy nazariy manbalarni tahlil qilish makroiqtisodiy o‘sish va aholi bandligi o‘rtasidagi bog‘liqlik va bandlikni ta’minlash muammolariga bag‘ishlangan bir qator asarlar mavjudligini e’tirof etishga imkon beradi, ular orasida R.Adams (2002), A.Auzina-Emsina (2014), O.Badunenko & D.Romero-Bvila (2018), I.Iyanatul And D.Kucera (2013), Sh.D. Kudbiev (2020), H.Hauben, K.Lenaerts, W.Waeyaert (2020), A.Payton (2017), John Weeks (2011)ni qayd etish mumkin<sup>3</sup>.

---

Research Working Paper 2972, World Bank, February 2002; Auzina - Emsina, A. (2014). Labour productivity. Economic growth and global competitiveness in post-crisis period. *Procedia — Social and Behavioral Sciences*, 156.-317–321; Badunenko, O., & Romero-Bvila, D. (2018). Productivity growth across industries and regions: A Production-Frontier Approach Applied to the Spanish Case. [http://www.alde.es/fotos/bd/12062\\_01511\\_00331\\_636.pdf](http://www.alde.es/fotos/bd/12062_01511_00331_636.pdf). Accessed June 16, 2018; Islam Iyanatul and David Kucera (eds.). (2013). *Beyond macroeconomic stability: Structural transformation and inclusive development*. London, Geneva: Palgrave Macmillan and ILO; Kudbiev Sh. D. (2020). Digital economy as a new stage of globalization of the labor market. LXVII International Correspondence Scientific and Practical Conference «International Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and Education» Boston. USA. February 18-19, 2020; Hauben H., Lenaerts K., Waeyaert W. (2020). The platform economy and precarious work. Publication for the committee on Employment and Social Affairs, Policy Department for Economic, Scientific and Quality of Life Policies, European Parliament, Luxembourg. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2020/652734/IPOL\\_STU\(2020\)652734\\_EN.pdf](https://www.europarl.europa.eu/RegData/etudes/STUD/2020/652734/IPOL_STU(2020)652734_EN.pdf). (дата обращения: 21.07.2022); Payton A. (2017). Skilling for tomorrow. 26th National VET Research Conference ‘No Frills’. NCVER. - 2017.

MDHning yetakchi olimlaridan G.Bayanduryan, O.S.Belokrylova, V.S.Borovik, V.A.Vasyaycheva, N.G.Vishnevskaya, A.K.Dubovik, A.V.Kotlyar, A.I.Rofe, E.S.Uzyakova, M.N.Uzyakov<sup>4</sup> o'z tadqiqotlarida bandlikni davlat tomonidan tartibga solish, mehnat bozoridagi talab va taklif mutanosibligiga alohida e'tibor beradilar.

Mahalliy olimlardan T.Sh.Shodiyev, B.B.Berkinov, N.M.Maxmudov, N.S.Ziyadullayev, N.A.Xashimova, M.T.Asqarova, S.V.Chepel, X.S.Asadov, K.Kurpayanidi, A.Abdullayev, Sh.Muxsinova, A.M.Qodirov, A.T.Axmediyeva<sup>5</sup>ning ishlari makroiqtisodiy barqarorlikning hozirgi holati, iqtisodiy o'sish, tarkibiy va institutsional islohotlar, makroiqtisodiy voqelikning murakkabligi va ko'p rejaliligini tushuntirish, O'zbekiston iqtisodiyotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tushunishga bag'ishlangan. Mualliflar asarlarida bir vaqtning o'zida ko'p sonli omillarni hisobga olish, makroiqtisodiy jarayonlarning qonuniyatlari va o'zaro munosabatlarini bilish, makroiqtisodiy bozorlardagi (tovar, pul, qimmatli qog'ozlar, mehnat, valyuta) o'zgarishlarining sabab va oqibatlari, shuningdek, asosiy makroiqtisodiy o'zgaruvchilar (YaIM, ishsizlik, inflyatsiya darajasi, foiz stavkalari, ish haqi, valyuta kurslari)ga e'tibor qaratilgan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda aholi bandligi muammosi ham ko'pgina olimlarning alohida e'tiborda bo'lgan obyekt hisoblanadi. Aholi bandligini oshirishga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan Q.X.Abdurahmonov, B.X.Umurzoqov, N.X.Rahimova, Z.Y.Xudoyberdiyev, N.K.Zokirova,

---

<sup>4</sup> Баяндурян Г. Институциональные проблемы занятости в развитых и переходных экономиках: монография / Г. Баяндурян. – М.: Прометей Mill У, 2006. — 370 с.; Белокрылова О.С. Занятость и рынок труда в переходной экономике: Теория и практика / О.С. Белокрылова, А.А. Зайченко. – Ростов-на-Дону: РГУ, 2005. – 157 с.; Боровик В.С. Занятость населения: Учеб. пособие для студентов вузов и учреждений повышения квалификации, обучающихся по экон. и соц. специальностям / В. С. Боровик, Е. Е. Ермакова, В. А. Похощев. - Ростов н/Д: Феникс, 2001. - 317 с.; Васяйчева В.А. Рынок труда и трудовая миграция: учеб. пособие / В.А. Васяйчева, Д.Г. Слатов. – Самара: Изд-во Самарского университета, 2018. – 96 с.; Котляр А.В. Теоретические проблемы занятости остаются актуальными / А.В. Котляр. – М.: Человек и труд, 2011. - 220 с.; Рофе А. И. Экономика труда: учебник / А. И. Рофе. – М.: КНОРУС, 2020. – 259 с.; Узякова Е. С., Узяков М. Н. Занятость и эффективная занятость в экономике Проблемы прогнозирования. – М.: Наука / Интерпериодика, 2011. - №6. - 89-102 с.

<sup>5</sup> Шодиев Т.Ш. Ишлаб чиқариши модернизациялаш, интеллектуаллаштириш ва диверсификациялаш асосида иқтисодий ўсиш сифатини ошириш. // Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар. – Т., 2011. - №9.; Беркинов Б.Б., Анваров А.А. Ўзбекистон иқтисодиётида таркибий ва институционал ислохотларни чуқурлаштириш йўналишлари. //Journal of marketing, business and management. 2022, Том1.-№ 3. - 1-6 с.; Махмудов Н.М., Хакимов Х. Макроиктисодий барқарорликни мустахкамлаш барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим шартлари. // Иқтисодиёт ва таълим, 2017. - № 2. - 7-12 б.; Зиядуллаев Н.С. Императивы экономического возрождения нового Узбекистана // Экономика Центральной Азии. – 2021. – Том 5. – № 4. – С. 395-404. – doi: [10.18334/asia.5.4.114529](https://doi.org/10.18334/asia.5.4.114529); Хашимова Н.А. Устойчивое экономическое развитие Узбекистана на основе совершенствования механизма формирования инвестиционного потенциала. // Иқтисодиёт ва таълим, 2017. - №,15-2 с.; Аскарлова М.Т. Необходимость обеспечения инклюзивного экономического роста страны. // Инновации в экономике. 2021. - №4. - 20-25 с.; Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана: Чепель С.В. / Монография / Ташкент: IFMR, 2014. – 316 с.; Асадов Х.С. (2020) Современные тенденции экономического развития регионов Узбекистана. // Экономика. – 2020. – № 3. – с. 251-262. – doi: [10.18334/asia.4.3.110805](https://doi.org/10.18334/asia.4.3.110805); Курпаяниди, К., Абдуллаев А., Мухсинова Ш. (2021). Анализ макроэкономической политики Республики Узбекистан. Общество и инновации. 2, 6/S (июл. 2021), 248–252. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss6/S-pp248-252>; Кадиров А.М., Маъмуров Б.Х., Базаров Ф.О., Ахмедиева А.Т. Перспективы развития цифровой экономики в Республике Узбекистан. XIII Евразийский научный форум. – Санкт-Петербург, 18-19 ноября. 2021 г.

S.D.Kudbiyev, G.K.Abdurahmonova, Sh.R.Xolmo‘minov, N.U.Arabov, D.A.Nasimov, A.B.Ermatova va boshqa olimlarni alohida qayd etish mumkin<sup>6</sup>.

Bu mualliflarning ilmiy ishlari tahlili bandlik sohasida nazariya va amaliyotni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatdi, bunda inson kapitali salohiyatidan foydalanish nuqtayi nazaridan yoshlar va ayollar bandligini oshirish muammolari o‘z yechimini topadi. Bu masala yosh kadrlar uchun mehnat bozoridagi talab va taklifni rejalashtirish hamda prognozlashning tegishli mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning harakatchanligi va bandligini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish imkonini beruvchi kontent ta‘limi va kasbiy tayyorgarlik orqali ularning malakasini oshirishni taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining IL-402104476-sonli “Ayollarni ish bilan ta‘minlash uchun kraudfanding platformasi va STEM dasturini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekistonda barqaror iqtisodiy o‘shish sharoitida aholi bandligini ta‘minlashning makroiqtisodiy jihatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari.** Belgilangan maqsadga erishish uchun ishda quyidagi vazifalar belgilandi:

mehnat bozorida asosiy parametr sifatidagi “bandlik” kategoriyasini nazariy tahlil qilish asosida uni ta‘minlash mexanizmlari va zamonaviy yondashuvlari bilan bog‘liq holda atamalar apparatini shakllantirish;

makrodarajada bandlik va barqaror iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlikning ilmiy-nazariy xususiyatlarini yoritib berish va aholi bandligi sohasidagi makroiqtisodiy siyosatning xususiyatlarini aniqlash;

makroiqtisodiy tahlil o‘tkazish va bandlikning hozirgi tendensiyalarini baholash, norasmiy bandlikni tahlil qilish va respublika iqtisodiyotida uni kamaytirish yo‘nalishlarini ishlab chiqish;

retrospektivadagi tendensiyalarni aks ettiruvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va mehnat resurslari tizimiga asoslangan prognozlash modellarini ishlab chiqish;

---

<sup>6</sup> Абдурахманов К.Х. Искусственный интеллект - основа устойчивого развития экономики. Учебное пособие. – М.: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. Плеханова», 2023. - 358 с.; Абдурахманов К.Х. Экономика труда. Теория и практика: Учебник: К. Х. Абдурахманов. – М.: ФГБОУ ВО «РЭУ им. Г. Плеханова», 2019. - 662 с.; Умурзаков Б.Х., Махмудов Т.А. Пандемия даврида аҳолини бандлигига кўмаклашиш. //Ўзбекистон Республикасининг ҳаракатлар стратегияси: макроиқтисодий барқарорлик, инвестицион фаоллик ва инновацион ривожланиш истикболлари. Халқаро он-лайн конференция материаллари. Том 1. - № 1 (2021). - 455-459 б.; Рахимова Н.Х. Роль и место женщины на рынке труда Узбекистана. Теория и практика. – Т.: Фан, 2006; Худойбердиев З.Я. ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси асослари. 2-нашр. Ўқув кўлланма. – Т.: ИLM ZIYO, 2017. -344 б.; Абдурахманов К.Х., Кудбиев Ш.Д. Рынок труда: Формирование и регулирование. Монография. – Т.: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, ДУК. 2019. – 200 с.; Зокирова Н.К., Абдурахманова Г., Сагидуллин Ф.Р. Трансформация форм занятости в инновационном развитии. // International scientific review. 2020, No LXX. - 24-28 с.; Абдурахманова Г.К. Макроэкономическое регулирование занятости населения: монография / под ред. Ю. Г. Одегова. – М.: МАТТР, 2013. – 304 с.; Холмуминов Ш.Р., Арабов Н.У., Насимов Д.А, Эффективные социально-экономические механизмы обеспечения занятости сельского населения. // «Экономика и предпринимательство. №10, 2018 г.-198-200 с.; Ирматова А.Б. Интеллектуал меҳнатни ривожланиши аёлларни иш билан бандлигига таъсири. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2020 йил, № 1. 93-100-б.

samarali bandlikni ta'minlash uchun prognozlash va strategik rejalashtirishning zamonaviy usullari asosida kadrlarga talab va taklifni moslashtirish vositalarini belgilash;

yoshlar bandligini davlat tomonidan tartibga solishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti.** Ijtimoiy barpo etishning barcha daraja va bosqichlarida yuzaga keluvchi O'zbekiston aholisi bandligi.

**Tadqiqotning predmeti** barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida aholi bandligini ta'minlashning makroiqtisodiy jihatlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tahlil va sintez, me'yoriy yondashuv, tizimli va qiyosiy tahlil, vaziyatni o'rganishning o'ziga xos usullari, statistik va ekonometrik, xususan, korrelyatsion-regressiya va variatsion tahlilni o'z ichiga olgan umumiy ilmiy uslub va uslublardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

makroiqtisodiy darajada mehnat bozorida talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi omillar kompleksini e'tiborga olgan holda mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va aholi bandligi ko'rsatkichlarining 2027-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari asoslangan;

iqtisodiy o'sish sharoitida norasmiy bandlikni optimallashtirish, samarali bandlik va ichki imkoniyatlardan foydalanish samaradorligiga ko'ra oilaviy korxonalarini ssenariyli-modeli rivojlanishiga ko'ra optimallashtirilgan rivojlanish modelining 2027-yilgacha bo'lgan davrdagi prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

iqtisodiyotning barqaror o'sishi va aholi sonining demografik ortib borishi sharoitida samarali bandlikni ta'minlash, malakali kadrlarga talab-taklif mutanosibligini muvofiqlashtirish, norasmiy bandlikni kamaytirish borasida mahallalarda norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha bir martalik bandlikka ko'ra davlat-xususiy sheriklik markazlarini tashkil etish asoslangan;

mehnat bozorining malakali kasblar yetishmasligiga chuqur moslashuvini mazkur jarayonni ustuvor darajada hududdagi iqtisodiy va mehnat bozori holati darajasida tatqiq etgan holda tadqiqot natijalaridan mahalliy hokimiyat organlarini boshqarish va moliyalashtirishda ustuvor darajada foydalanishning maqsadga muvofiqligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

“bandlik” kategoriyasining terminologik apparati barqaror iqtisodiy o'sish sharoitida uni ta'minlash mexanizmlari va zamonaviy yondashuvlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va unga mualliflik ta'rifi berilgan;

respublikada bandlikni rivojlantirishning hozirgi tendensiyalari baholangan;

respublika iqtisodiyotida norasmiy bandlikni kamaytirish bo'yicha yo'nalishlar ishlab chiqilgan;

O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida bandlikning ishlab chiqarish samaradorligi baholangan;

qisqa va o'rtta muddatli istiqbolda kutilayotgan bandlik va ishsizlik darajasi prognoz qilingan;

malakali kadrlarga yillik ehtiyojning statistik ma'lumotlari va prognoz ko'rsatkichlarini tekshirish shaklini joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan;

samarali bandlikni ta'minlash uchun kadrlarga talab va taklifni muvofiqlashtirish bo'yicha dastaklar to'plami ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlar rasmiy manbalardan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (hozirgi O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi) statistik ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan olinganligi, shuningdek, tegishli xulosalar va takliflar vazirlik hamda idoralar tomonidan amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda shakllantirilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflardan davlat tuzilmalari funksiyalarini, amaldagi mehnat qonunchiligini yanada takomillashtirish, makroiqtisodiy barqarorlik, aholi bandligini ta'minlash bo'yicha qarorlar va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy omillarini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin. Muallif tomonidan tadqiq qilingan va taqdim etilgan umumiy nazariy qoidalar va ilmiy xulosalar bozor munosabatlarini chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyot va ijtimoiy-mehnat munosabatlarini boshqarish borasida mavjud muammolarni tushunishni qayta anglashga hissa qo'shishi mumkin bo'lib, ular O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan maqsadli dasturlarni ishlab chiqish hamda aholi bandligi va turmush darajasini yanada oshirish parametrlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, tuzilgan ko'p omilli modeldan foydalanib, respublika iqtisodiyoti va aholining bandlik darajasi oshirishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari ssenariylarini prognoz qilish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Kambag'allikni kamaytirish va aholi bandligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda quyidagi natijalar qo'llanildi:

makroiqtisodiy darajada mehnat bozorida talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi omillar kompleksini e'tiborga olgan holda mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi va aholi bandlik ko'rsatkichlarining 2027-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amaliyotga joriy qilindi (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 15-iyundagi 01/00-04/5096 - son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi samarali bandlikni ta'minlash imkonini beradi;

iqtisodiy o'sish sharoitida norasmiy bandlikni optimallashtirish, samarali bandlik va ichki imkoniyatlardan foydalanish samaradorligiga ko'ra oilaviy korxonalarining ssenariyli-modeli rivojlanishiga ko'ra, optimallashtirilgan rivojlanish modelining 2027-yilgacha davrdagi prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi

tomonidan amaliyotga joriy qilindi (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 15-iyundagi 01/00-04/5096 - son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning amalga oshirilishi mehnat bozorida norasmiy bandlikni optimallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va aholi sonining demografik ortib borishi sharoitida samarali bandlikni ta’minlash, malakali kadrlarga talab-taklif mutanosibligini muvofiqlashtirish, norasmiy bandlikni kamaytirish borasida mahallalarda norasmiy bandlikni kamaytirish bo‘yicha bir martalik bandlikka ko‘ra davlat-xususiy sheriklik markazlarini tashkil etish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amaliyotga joriy qilindi (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 15-iyundagi 01/00-04/5096 - son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, yoshlar mehnat bozorida startap loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi;

mehnat bozorining malakali kasblar yetishmasligiga chuqur moslashuvini mazkur jarayonni ustuvor darajada hududdagi iqtisodiy va mehnat bozori holati darajasida tatqiq etgan holda tadqiqot natijalaridan mahalliy hokimiyat organlarini boshqarish va moliyalashtirishda ustuvor darajada foydalanishning maqsadga muvofiqligi bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amaliyotga joriy qilindi (O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 15-iyundagi 01/00-04/5096 - son ma’lumotnomasi). Mazkur taklifning tatbiq etilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari uchun malakali yosh kadrlarga talab va taklifni muvozanatlash va bandlik sifatini oshirish imkoniyatlari yanada kengaytiriladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy maqola, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shu jumladan, 4 tasi respublika va 4 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismining hajmi 167 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiya ishining **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi va muammoni o‘rganilganlik darajasi keltirilgan, ilmiy faraz, tadqiqotning maqsad va vazifalari izohlangan, tadqiqot obyekti, predmeti va usullari aniqlangan, ilmiy yangilik, amaliy natijalar va olingan natijalarning ishonchliligi izohlangan, tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati asoslangan, amaliyotga tatbiq etish natijalari, ularning aprobatsiyasi va tadqiqot

natijalarini nashr etish, shuningdek, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotning barqaror o'sishi sharoitida aholi bandligini ta'minlashning nazariy va uslubiy jihatlari”** deb nomlangan birinchi bobi mehnat bozorida aholi bandligini ta'minlashning mohiyati va zamonaviy yondashuvlarini o'rganish, makrodarajada bandlik va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik, aholi bandligini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, shu jumladan, yoshlar bandligini ta'minlash, shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yoritib berishga bag'ishlangan.

Bandlik eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalardan biri bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq insonning “mehnatga bo'lgan qobiliyatini erkin tasarruf etish, faoliyat turini va kasbini tanlash” huquqini amalga oshirish bilan bog'liq. Bundan tashqari, bandlik inson uchun daromad manbai bo'lib, insonning turli moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy bazani tashkil qiladi. O'zbekistonda mehnat bozori, xususan, aholi bandligi sektori bir necha turli rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi, bunda ular o'rtasidagi chegaralar O'zbekistonda hukm surayotgan makroiqtisodiy nuqtayi nazardan tub o'zgarishlar bilan belgilangan.

Iqtisodiy o'sish nazariyalari, shuningdek, bandlikni tartibga solish konsepsiyasi o'zining evolyutsion rivojlanishida uzoq yo'lni bosib o'tdi, unda iqtisodiy o'sish va makrodarajadagi bandlikning metodologik asosini turli sohalar vakillarining model va yondashuvlari tashkil etadi.



Manba: muallif tomonidan mualliflar<sup>7</sup> ma'lumotlaridan foydalangan holda tuzilgan<sup>7</sup>.

### **1-rasm. Aholi bandligini o'rganishga yondashuvlar**

Bandlikni o'rganishga zamonaviy yondashuvlarning xilma-xilligi (1-rasm) mazkur hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligi hamda makroiqtisodiy xususiyatlar va barqaror iqtisodiy o'sish bilan bog'liq yagona konsepsiya mavjud emasligidan dalolat beradi, bu esa dissertatsiya ishining ahamiyatini belgilaydi.

<sup>7</sup> Варшавская Е.Я. Гибкость занятости: зарубежный опыт и российская практика: монография /Е.Я. Варшавская. – Кемерово, 2009. - 255 с.; Грязнова А.Г., Чечелева Т.В., Атлас М.С. Экономическая теория национальной экономики и мирового хозяйства. [Электронный ресурс]: <http://bookmix.ru/book.phtml?id=343075> (дата обращения: 12.05.2022); Рофе, А. И. Экономика труда : учебник / А. И. Рофе. – М.: КНОРУС, 2020.– 259 с.; Коновалова М.Е., Балашова О.Ю. Теоретические подходы в исследовании категории «занятость населения». // Фундаментальные исследования. – 2012. – № 11-4. – С. 975-979; Наседкин, С.Ю. Основные формы занятости населения [Текст] / С.Ю. Наседкин // Ученые заметки ТОГУ, 2019. - Т. 10. - № 1. - С. 284-290.

Ishda tadqiqot maqsadiga muvofiq shakllantirilgan “bandlik” tushunchasiga muallifning ta’rifi berilgan bo‘lib, unga ko‘ra bu mehnatga layoqatli aholining faoliyati bilan bog‘liq, maosh (daromad) olish evaziga turmush sharoitini yaxshilash maqsadiga erishish uchun iste’mol xarajatlarini oshirish va barqaror iqtisodiy o‘shishga ta’sir qilishga imkon beruvchi mamlakat qonunlariga zid bo‘lmagan, aholining shaxsiy yoki ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy munosabatlar majmuidir.

Dissertatsiya ishida aholi bandligi tasnifi berilgan bo‘lib, u quyidagi turlarga bo‘linadi: ijtimoiy mehnatda ishtirok etish usuli (yo‘llash bo‘yicha bandlik va o‘zini o‘zi band qilish), ish vaqti (to‘liq va to‘liqsiz ish vaqti), bandlikning qonuniyligi (rasmiy va norasmiy), mehnat faoliyatining muntazamligi (doimiy va nodoimiy), tashkiliy-huquqiy sharoitlar (standart va nostandart) bo‘yicha bandlik.

Ishchi kuchi solig‘ining samarasi kamayadi, faol mehnat bozori siyosatiga xarajatlarning o‘shishi kamroq bo‘ladi, ammo bu chora-tadbirlar byudjetga neytral tarzda amalga oshirilganda ijobiy bo‘lib qoladi.

Ishda mehnat bozori va bandlik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mamlakatni qisqa va o‘rta muddatli istiqboldagi makroiqtisodiy natijalariga ta’siri darajasi o‘rganilgan bo‘lib, uning natijalari o‘zgarishlar ishlab chiqarish va bandlikning potensial darajasiga muhim hissa qo‘shishi mumkinligini ko‘rsatadi, ammo samara islohot turiga, umumiy iqtisodiy sharoitga va ko‘rib chiqilayotgan miqyosiga bog‘liq (1-jadval).

## 1-jadval

### Makroiqtisodiy islohotlarning bandlikka ta’sir darajasi

Islohot sohasi	Normal iqtisodiy sharoitlar		Zaif iqtisodiy sharoitlar		Kuchli iqtisodiy sharoitlar	
	Qisqa muddatli	O‘rta muddatli	Qisqa muddatli	O‘rta muddatli	Qisqa muddatli	O‘rta muddatli
Oziq-ovqat bozori	+	++		+	+	++
Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari			-	--	+	++
Ishsizlik nafaqalari	+	++	-		+	++
Mehnat solig‘ini to‘lash	++	++	++	++		
Mehnat bozorida faol siyosat	++	++	++	++		

Manba: International Monetary Fund (IMF), 2015 - manba ma’lumotlaridan foydalangan holda tuzilgan<sup>8</sup>.


Mehnat bozoridagi islohotlar va bandlikka ta’sir etuvchi samaralar umumiy iqtisodiy sharoitlarga, shu jumladan, mehnat bozoridagi fiskal tuzilmaviy islohotlarga (ishchi kuchi soliqlarining kamayishi va iqtisodiy tanazzul davrida ko‘proq ta’sir ko‘rsatuvchi faol mehnat bozori siyosatiga davlat xarajatlarining ko‘payishi) bog‘liq. Bandlikni himoya qilish tizimi, ishsizlik nafaqalari mexanizmlari va tizimlaridagi islohotlar normal iqtisodiy sharoitlarda ijobiy samara berishi mumkin, ammo ular yalpi talabni zaiflashtirishi mumkinligi sababli yanada cheklovchi tavsifga ega bo‘ladi.

<sup>8</sup> International Monetary Fund (IMF). 2015. “Structural Reforms and Macroeconomic Performance: Initial Considerations for the Fund.” IMF Staff Report, Washington.

Bandlik va barqaror iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi munosabatlarning asosiy jihatlarini o‘rganish doirasida mazkur masala bo‘yicha iqtisodiy manbalarning keng qamrovli tahlili o‘tkazildi, bu esa quyidagi turli mualliflik taxminlari mavjudligini aniqladi. Bulardan birinchisi, iqtisodiyotda real unumdorlikni ta‘minlash uchun eng yaxshi asbob-uskunalar, shu jumladan, ishlab chiqarish vositalari, mehnatkashlarning ixtisoslashuvi va mehnat malakalari bo‘lishi kerak. Yana bir fikr – progressiv bandlik imkoniyati mavjud emasligi friksion va tarkibiy ishsizlikning yuzaga kelishiga turtki bo‘ladi, bu ishchi kuchining unumdorligi, turmush darajasi va iqtisodiyotning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatadi.

Bunda iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish eng muhim tarkibiy qism bo‘lib, uni amalga oshirish uchun ustuvor chora-tadbirlarni ajratib ko‘rsatish mumkin; inson kapitalini mustahkamlash uchun ta‘lim, sog‘liqni saqlash va ovqatlanish sifatini oshirish; moslashuvchan iqtisodiyot va tadbirkorlikni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish; texnologiya va innovatsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish; ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish.

Tadqiqotlar ko‘rsatdiki, an‘anaviy makroiqtisodiy siyosat doirasida makroiqtisodiy barqarorlik – past (bir xonali raqamning pastki chegarasini nazarda tutuvchi) inflyatsiya; past byudjet taqchilligi (yalpi ichki mahsulotning 5 %idan past); valyuta kursining barqarorligi va shu kabi tushunchalar bilan ifodalanadi. Bunda iqtisodiyotda resurslarni taqsimlashda muhim ahamiyat kasb etuvchi nisbiy narxlar ham o‘z ifodasini topadi. Bularning barchasi bozor mexanizmi erkin faoliyat yuritrsa, makroiqtisodiy barqarorlik ishlab chiqarish hajmining oshishiga, demak, aholi bandligini ta‘minlashga olib kelishi zarurligini bildiradi. Tuzilma 2-rasmda ko‘rsatilgan taxminlarga asoslangan.



Manba: muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tuzilgan.

**2-rasm. Bandlikka ta‘siri nuqtayi nazaridan iqtisodiyot o‘shishining makroiqtisodiy asoslari haqidagi farazlar**

O'zbekistonda bandlikni tartibga solish va uning yoshlarni ish bilan ta'minlashdagi o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish natijasida ilgari mavjud bo'lgan bir qator muammolar aniqlangan bo'lib, ular aholini ish bilan ta'minlash jarayoniga katta to'sqinlik qilgan, bunga quyidagilar sabab bo'lgan: birinchidan, eskirgan, samarasiz ish shakllari va usullari; ikkinchidan, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishga yuzaki yondashuvi; uchinchidan, aholi bandligini ta'minlash masalalarida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va keng jamoatchilikning o'zaro hamkorligi va mas'uliyatini oshirishning zaif mexanizmlari; to'rtinchidan, yaratilgan statsionar yangi ish o'rinlari sonining mehnat bozorining real ehtiyojlariga mos kelmasligi uning muvozanati buzilishiga olib keladi.

Ishda individual mehnat munosabatlari va ular bilan bog'liq jamoat munosabatlarini institutsional va huquqiy tartibga solishning asosiy tamoyillari, aholini ish bilan ta'minlashning davlat kafolatlari, bandlik shakllarini, shu jumladan,

2022-yil

28-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq 18 yoshga to'lmagan va undan katta yoshdagi shaxslar bandligini makrodarajada tartibga solishga asoslangan bo'lib, unda o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan 11 ta modda belgilangan.

Aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot joriy narxlarda 2022-yilda 24919,7 ming so'mni tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan bu ko'rsatkichning real o'sishi 3,5 foizga oshgan. 2021-yilda ish bilan band aholiga to'g'ri keluvchi real YIMning yillik o'sish sur'ati 5 foizni tashkil etgan, bu 2018-yilga nisbatan 2,3 foizga kam. Shu davrda band bo'lgan kishiga to'g'ri keladigan real YIMning o'rtacha o'sish sur'ati 4,6 foizni tashkil etgan.

Mazkur bobda keltirilgan statistik ma'lumotlarning makroiqtisodiy tahlili ko'rsatdiki, 2022-yilda iqtisodiyotning o'sish sur'atlari qurilish ishlari hajmi 106,6 foizga, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 115,9 foizga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 103 foizga o'sishi hisobiga ta'minlangan. Shu bilan birga, o'tgan yili (2022-yil) respublikada inflyatsiya darajasi 2021-yilga nisbatan 2,3 foiz punktga oshganini ko'rsatgan.

Dissertatsiyada mamlakat rivojlanishining makroiqtisodiy xususiyatlari va bunday rivojlanishga mos keluvchi makroiqtisodiy siyosatning nisbatan kam o'rganilgan tadqiqot yo'nalishi bo'lgan bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. O'zbekistonda iqtisodiyotga koronavirusning ta'siri oqibatlariga qaramay, 2022-yilda yalpi ichki mahsulotning jismoniy hajmi 5,7 foizga o'sgan va 888,3 trln. so'mni tashkil etgan, bunda eng katta hissa sanoat ulushiga to'g'ri kelgani va bu uning 5,2 %ga o'sishini ta'minlagan (2-jadval).

Dissertatsiya ishida yoshlar bandligini boshqarish mexanizmlari taklif qilingan bo'lib, u malakali mehnatga talab va taklifni shakllantirish sohasidagi munosabatlarning uyg'unlashuvi natijasida yuzaga keladigan, bilim va resurslarni shakllantirish va ko'paytirish, kadrlarga ehtiyojni, shaxsiy ehtiyoj va manfaatlarni qondirish, daromad olish va iqtisodiy o'sishga erishish maqsadida ish beruvchilar,

ta'lim muassasalaridan yoshlargacha bo'lgan elementlari o'zaro munosabatda bo'ladigan faoliyat jarayoni sifatida tushuniladi.

## 2-jadval

### O'zbekiston iqtisodiy o'sishini tavsiflovchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, o'tgan yilga nisbatan foizdagi o'sish sur'atlari

Ko'rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.
YIM	104,4	105,4	105,7	101,9	107,4	105,7
YIM deflyatori	119,1	127,0	117,9	111,6	113,5	113,7
Inflyatsiya darajasi (o'tgan yilga nisbatan o'sishi)	14,4	14,3	15,2	11,1	10,0	12,3
Sanoat mahsulotlari	105,2	110,8	105,0	100,9	108,8	105,2
Iste'mol tovarlari	106,7	114,7	110,3	105,7	113,9	119,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	101,2	100,3	103,1	102,9	104,0	103,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar	119,4	129,9	138,1	95,6	102,9	100,9
Qurilish ishlari	106,0	114,3	122,9	109,5	106,8	106,6
Chakana savdo aylanmasi	101,9	106,5	109,1	105,7	113,2	112,6
Ko'rsatilgan bozor xizmatlari	110,7	108,9	113,2	103,0	119,5	115,9
Eksport	103,8	111,4	124,8	86,5	110,0	115,9
Import	115,4	138,7	125,0	87,1	120,4	120,4

Manba: muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Shu bilan birga, ishda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari, maslahatlar, o'qitishlar, ko'rik-tanlovlar va boshqalar, shu jumladan, 2022–2023-yillarda yoshlarga oid davlat siyosati dasturida nazarda tutilgan chora-tadbirlar ochib berilgan, shuningdek, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal qilish yo'llari asoslangan. Jumladan: yoshlarning malakasi va mehnat unumdorligini oshirish uchun umumiy ta'lim va kasbga tayyorlash sifatiga e'tiborni kuchaytirish, mehnat bozoriga kirishdagi mavjud tartibga soluvchi to'siqlarni bartaraf etish; rasmiy bandlikda ularning ishtirok etishlari uchun yanada kengroq rag'batlantirish, ishbilarmonlik muhitiga to'sqinlik qilayotgan, xususiy sektor va yoshlarga tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish.

